

ALISHER NAVOIY IJODIDA BOSHQARUV KATEGORIYALARI

Buronov Ikrom Quchqarovich

Jizzax davlat pedagogika universiteti o'qituvchisi

Buyuk adib, ulug' mutafakkir hazrat Alisher Navoiy ijodi til va adabiyotimiz rivojida muhim o'rin tutadi. Lekin Alisher Navoiy nafaqat shoir, balki davlat arbobi ham edi. SHuning uchun uning asarlarida o'z davri siyosiy institutlari va jarayonlari bilan bog'liq ko'plab qarashlar o'z aksini topadi.

Navoiy qarashlarida zamonaviy siyosatshunoslikning asosiy kategoriyalari bo'lgan siyosat va siyosiy masala ham muhim o'rin egallaydi. Bu haqda akademik SH. Sirojiddinov o'zining "Amir Alisher: hayoti va faoliyati" asarida keng qamrovda fikr yuritadi¹. Siyosat tushunchasi asosida Navoiy davlat hokimiyatida muhim ahamiyatga ega bo'lgan lavozimlar va ularda faoliyat ko'rsatadigan yoki ko'rsatayotgan shaxslar, ularning ma'lum belgilangan qonun va tartib-qoidalarga rioya qilishi, vazifa va burchlari, manfaatlari va ehtiyojlariga e'tibor qaratadi. Navoiyning fikricha ularning siyosiy munosabatlari oxir-oqibatda hukmdor siyosatining asosini belgilab beradi².

Navoiy qarashlari uyg'un bo'lgan bugungi siyosiy kategoriyalardan yana biri bu siyosiy hokimiyat masalasidir. Mutafakkirning fikricha, siyosiy hokimiyat odamlarning muayyan ijtimoiy xarakterdagi harakatlariga obru-e'tibor, qonun-qoida yoki kuch yordamida ta'sir ko'rsatish vositasida itoatda tutish va ko'zlangan maqsadlarga boshqarish erkinligiga ega bo'lishdir. Bu masalada Navoiy shunday deydi: "Har oyinakim saltanat korxonasidag'i manosibdin har muchaga loyiq farosatoyin xushmandlarni va har chargaga muvofiq kiyosat tazyin xiradpayvandlarni saltanat umuriga mutaalliq ishlar kifoyati uchun soyiri nosdin tanlab ommal xaloyiqdin sechib, amorot navro'zi bila sarafroz va vazorat zayluchasi uzra muomalapardoz qildilar va bu amrning juzviy va kulliy ishiga kulliy va juzviy kishini ta'yin ettilar"³. SHu kabi bu jarayonda Navoiy amaldan kim va qanday foydalanishiga ko'proq munosabat bildiradi. CHunki siyosiy hokimiyatda shaxsning o'rni Navoiy yashagan davr siyosiy rejimida (monarxiya) muhim ahamiyatga ega bo'lgan. Buni uning "Vaqfiya" asarida kelgan quyidagi misolda yaqqol ko'rish mumkin: "bu xoksorniig ota-bobosi ul hazratning obo va ajdodi xizmatlaridakim, har biri saltanat konining gavhari va shujoat beshasining g'azanfari erdilar - ulug' marotibqa sazovor va biyik manosibqa komgor bo'lg'on erdilar"⁴. Siyosiy hokimiyat amalda lavozimlar vositasida shaxslar o'rtasida taqsimlangan va umumiy jamiyat va davlat ustidan olib boriladigan siyosatda bu lavozim va shaxslarning alohida o'rni bo'lgan.

Navoiy asarlarida e'tibor qaratilgan siyosiy kategoriyalar doirasida siyosiy tizim va uning tarkibidagi munosabatlarga ham katta ahamiyat qaratilgan. "CHun zamonning azimushshon sodot va fuzalosi va davroning karimulxulq quzot va ulamosi va temuriynajod shahzodalar va «barlosiy» nihod ozodalar va «arlotiy» ismlik sadrnishinlar va «tarxoniy» rasmlik ayshguzinlar va «qiyot» nasablik mutaayyinlar va «qo'ng'iro't» hasablik mutamakkinlar va «uyg'uriy» sifat baxshilar va «uyg'ur»chargalik yaxshilar va «cho'li»lik biyobonida jonsiporli qilg'on jondorlar va boyrilik ayyomida xizmatkorlik qilg'on jonsiporlar va «jaloyir» g'avg'osi va «qavchin» alolasi mavjud erdi va har mavjudqa bir maqsud va podshohona inoyat va har qaysig'a bir munosib mansab bilan sarbaland va xusravona tarbiyat, har birisini muvofiq amal shug'lig'a payvand qildilar"⁵. Bugungi siyosiy qarashlarda bunga siyosat sub'ektlari va ob'ektlari sifatida yondashiladi. Navoiy qarashlariga ko'ra siyosiy hokimiyatni amalga oshirish nafaqat siyosat sub'ektlarini shakllantirishni, balki ularning tarkibiy qismlarini mamlakat

¹ Қаранг: Сиројиддинов Ш. Амир Алишер: ҳаёти ва фаолияти. -Т.: "Адабиёт" нашриёти, 2023. - 200 б.

² Зоҳидов В. Улуғ шоир ижодининг қалби. — Т., 1970. -Б.104.

³ Алишер Навоий. https://www.ziyouz.com/books/alisher_navoiy_asarlari/Alisher_Navoiy_Vaqfiya.pdf. -Б. 8.

⁴ Ўша манба. -Б. 9.

⁵ Ўша манба. -Б. 8.

hududi bo‘ylab tartibli joylashtirishni ham talab etadi. SHuning uchun siyosat ob‘ektlari siyosiy hokimiyat darajasidan kelib chiqib, davlat va mahalliy hududiy boshqaruv tarmoqlariga bo‘linadi. Qiziqarli tomoni shundaki, Navoiyning bu qarashlari hozirgi zamon unitar, federativ va konfederativ davlat qurilishi va siyosati tamoyillariga juda mos keladi.

Navoiy qarashlarida jamiyat tarkibini belgilash va uning boshqaruvini tashkil etishning ijtimoiy-siyosiy shakli masalasida ham bir qator asarlarida fikrlar bildiriladi. Zamonaviy siyosatshunoslik fanida boshqaruv va uning siyosati mohiyatidan kelib chiqib monarxiya, respublika (parlamentar yoki prezidentlik), demokratik, avtoritar, totalitar va boshqa bir qator tuzumlar farqlanadi. Navoiy monarxiya tuzumi davrida yashagan bo‘lsada jamiyat tarkibi, uni guruhlariga bo‘lish, boshqarishni tashkil etish masalalarida uning qarashlari zamonaviy siyosatshunoslik qayd etgan belgilardan ancha farqlanadi.

Amaliy siyosat va jamiyatdagi siyosiy munosabatlarning o‘zaro aloqalari, hokimiyat sub‘ektlari hamkorlikdagi harakatlarining o‘ziga xos xususiyatlari, hokimiyat sub‘ektlarining ob‘ektlarga va ob‘ektlarining sub‘ektlarga aylanishi masalalari Navoiyning chuqur diqqat markazida turgani asarlarida yaqqol ko‘rinib turadi. Zamonaviy siyosat siyosiy munosabatlarning subektlar va ob‘ektlar aloqalarida aholi tomonidan qo‘llab-quvvatlanadigan va ixtiyoriy ravishda amal qilinadigan turli ijobiy yoki salbiy ijtimoiy-siyosiy me‘yorlarga tayanishini qayd etadi. Mazkur munosabatlarning chigal va murakkab tizimiga doir qarashlar Navoiyning siyosiy faoliyat va siyosiy axloq me‘yorlari bilan bog‘liq fikrlarida o‘z aksini topgan.

SHuningdek Navoiyning ijtimoiy qatlamlar va ularning siyosiy jarayonlardagi ishtirokiga oid qarashlari bugungi bugungi siyosiy fanlar tizimida o‘rganiladigan siyosiy kategoriyalar mohiyatiga anchagina mos keladi. Navoiy bular tarkibida siyosiy elita tarkibiy qismlarini ham e‘tibordan qoldirmagan. Davlat siyosatini amalga oshirishda o‘zaro sherikchilik va raqobat vositasida faoliyat olib boradigan siyosiy elita jamiyatning ijtimoiy-siyosiy katta kuchga ega bo‘lgan muhim qatlami ekanligini Navoiy chuqur darajada tushungan.

Aynan Navoiyda bugungi jahon siyosiy ilmlar mutaxassislari tomonidan e‘tirof etilgan siyosiy liderlik kategoriyasiga siyosiy elita va siyosiy ta‘sirga qobiliyatli qatlamlar faoliyatidan kelib chiqib baho beriladi. SHunga ko‘ra aytish mumkinki Navoiy siyosiy jarayonlarni boshqarishni siyosiy qatlamlar – siyosiy elita – siyosiy liderlik tizimida tasavvur etadi. SHuni ta‘kidlash kerakki mazkur siyosat sub‘ektlarining o‘zaro aloqadorlikdagi faoliyati o‘rta asrlarda odatda siyosiy tizimning mohiyati va maqsadlarini belgilab bergan. Albatta buni Navoiy yaxshi tasavvur eta olgan va shu jihatdan ko‘plab siyosiy nizolarni bartaraf etishda jonbozlik ko‘rsatgan. U ayni vaqtda siyosiy sub‘ektlar orasidagi aloqadorlikni saqlab qolish, ular o‘rtasida siyosiy muvozanatga erishish vositasida Husayn Boyqaro davlati siyosiy tizimini asrab qolish tarafdori edi.

Navoiy qarashlarida siyosiy institutlar o‘z davri davlatchilik madaniyati bilan bog‘liq ravishda aks ettiriladi. Unga ko‘ra davlat mazkur institutlarning bosh elementi bo‘lsa, hukmdor uning ikkinchi elementi va tayanchidir.

Navoiy asarlarida keng ahamiyat qaratilgan siyosiy kategoriyalardan yana biri siyosiy boshqaruv va siyosiy rahbarlikdir. Bu ikki kategoriya jamiyatning tizimli taraqqiy etishida o‘ta xilma-xil bo‘lgan ijtimoiy-siyosiy faoliyat va munosabatlarni tartibga solish, strategik va taktik davlat rejalari yo‘nalishlarini belgilash va amalga oshirish, mavjud siyosiy jarayonlarni boshqarishda asosiy o‘rin egallaydi. Navoiy buni yaxshi tushungan holda siyosiy boshqaruvni ijtimoiy qatlamlar ishtirokida, siyosiy rahbarlikni esa monarx hukmdorlik vositasida amalga oshirish g‘oyasini targ‘ib etgan. Unga ko‘ra elitar tabaqalar siyosiy boshqaruvda o‘z manfaatlarini ko‘radilar va shuning uchun hukmdorning siyosiy rahbarligiga rozi bo‘ladilar. Hukmdor siyosiy boshqaruvni rahbarlik bilan birlashtirsa va boshqaruvdan tabaqalar vakillari benasib qolsa aynan shu vakillar siyosiy boshqaruvga emas, siyosiy rahbarlikka qarshi bosh ko‘taradilar. Bu esa tabaqalar ichida keng tarqalib siyosiy rahbar boshqaruviga

yoki siyosiy liderga qarshi siyosiy muhitni yuzaga keltiradi. Siyosiy muhit esa bus-butun tabaqalarni qamrab olishi mumkin. Siyosiy muhitni siyosatning hab bir kategoriyasi shakllantirishi mumkin. Bu borada Navoiyning quyidagi ruboiysi ibratlidir:

To hirsu havas xirmanı barbod o‘lmas:

To nafsu havo qasri baraftod o‘lmas.

To zulmu sitam jonig‘a bedod o‘lmas,

El shod o‘lmas, mamlakat obod o‘lmas⁶.

Xuddi shu kabi siyosiy muhit har qanday siyosiy shaxs, siyosiy guruh yoki qatlam, siyosiy institutlar va siyosiy jarayonlarga ta’sir ko‘rsatib siyosiy munosabatlarni hamkorlik yoki muxolifatga yo‘naltirishi mumkin. Navoiyning bu masalalardagi qarashlari “Munshaot”da to‘liq o‘z aksini topgan.

Navoiy bugungi siyosatshunoslikda kategorial ahamiyatga ega bo‘lgan siyosiy qadriyatlar haqida ham o‘z fikrlarini bayon qilgan. Zamonaviy siyosatshunoslik siyosiy qadriyatlarni ijtimoiy tajribada ko‘rilgan, ijtimoiy sub’ektlar tomonidan qabul qilingan amaldagi siyosiy me’yorlar va jarayonlar majmuasi sifatida ta’riflaydi. Siyosat sub’ektlarining xarakteri va faoliyat uslublariga ko‘ra bu qadriyatlar demokratik, avtoritar, totalitar, radikal, konformistik, adaptatsion, tabaqaviy xususiyatlarga ega bo‘lishi qayd etiladi.

Navoiy esa siyosiy qadriyatlarga siyosiy manfaatlardan kelib chiqib e’tibor qaratadi. Navoiyning fikricha jamiyatdagi muayyan guruhlar yoki shaxslarning ehtiyojlari va ularning qondirilishi masalalari birinchidan siyosiy tarqoqlikning oldini oladi, ikkinchi tomondan esa siyosiy manfaatlarning umumlashuviga zamin hozirlaydi. Siyosiy manfaatlarning umumlashuvi jamiyatda guruhlararo tarzda yuz beradi va bu muayyan davrga xos siyosiy qadriyatlarining shakllanishiga olib keladi.

Ta’kidlash o‘rinliki, o‘z navbatida siyosiy manfaatlarning umumlashuvi siyosiy qadriyatlarining tizimlashishiga, bu holat esa amalda siyosiy jarayonlarning yuzaga kelishiga imkoniyat yaratadi. Mazkur jarayonlar turli sohalar bilan bog‘liq masalalarni yoki ularning yaxlit barchasini qamrab olishi mumkin. Bundan tashqari bu jarayonlar demokratik islohotlar, inqilobiy holat, ijtimoiy to‘lqinlanish va boshqa holatlarni keltirib chiqarish bilan izohlanadi. SHunga ko‘ra siyosat siyosiy jarayonlar ning yadroviy tarmoqlaridan biri bo‘lib, uning mavjudlik va rivojanish shakli va uslubi sifatida namoyon bo‘ladi.

Siyosiy jarayonlar bilan doimiy birgalikda namoyon bo‘luvchi kategoriyalardan biri siyosiy kayfiyat (povedenie) dir. Navoiy bir o‘rinda bu haqda shunday deydi: “necha nav’ xizmatkim, dunyo sudi andin paydo va oxirat behbudi andin huvaydo bo‘lg‘ay, o‘zumga lozim tuttum va necha nav’ ishkim, xaloyiq duosig‘a bois va holiq rizosig‘a sabab bo‘la olg‘ay, qoshimda muqarrar qildim... bu iqlimni aning sultoni xayolig‘a musallam tuttum”⁷. Hozirgi siyosiy fanlarda unga asosan siyosiy tartib nuqtai nazaridan qaraladi. Siyosiy tartibda nimaga amal qilganligini esa Navoiy shunday ifodalaydi: “Iligimdan kelgancha zulm tig‘in ushotib, mazlum jarohatig‘a intixol marhamin qo‘ydim. Va iligimdin kelmaganni ul hazrat arzig‘a etkurdim. To zulm palangi terisidin kiyik sur‘atlik bodpolar g‘oshiyasig‘a ziynat berdi va mazlum joni kiyigi ko‘ziga amniyat marg‘zorida qoplon dog‘lar o‘rniga lola dog‘lari ko‘rguzdi”⁸.

Bir jamiyat tarkibida bo‘lsada siyosat sub’ektlarining siyosiy faolligi turli darajada namoyon bo‘ladi. Mazkur faollik siyosat sub’ektining siyosiy voqe‘likka yondashuvi yoki shu siyosiy voqe‘likning siyosat sub’ekti munosabatlarida qanchalik muhim ahamiyatga ega ekanligi bilan bog‘liq bo‘ladi.

⁶ Алишер Навоий. https://www.ziyouz.com/books/alisher_navoiy_asarlari/Alisher_Navoiy_Vaqfiya.pdf. -Б. 15.

⁷ Алишер Навоий. https://www.ziyouz.com/books/alisher_navoiy_asarlari/Alisher_Navoiy_Vaqfiya.pdf. -Б. 14.

⁸ Ўша манба. -Б.15.

Soddaroq qilib aytganda siyosiy voqe'lik siyosiy kayfiyatning asosi bo'lib xizmat qiladi. Voqe'likning siyosiy mohiyatga ega bo'lishi birinchidan, uning siyosiy masalalarga aloqadorligi, ikkinchidan, uning ijtimoiy xarakteri, ya'ni ko'pchilikni o'ziga jalb etishi, uchinchidan esa, siyosiy hokimiyat bilan bog'liq jarayonlarning bevosita tarkibiy qismi bo'lishini talab etadi. xuddi shu jarayonlar ichida siyosiy voqe'lik va siyosiy kayfiyat ichidan siyosiy ishtirok kategoriyasi o'sib chiqadi. Siyosiy ishtirok siyosiy jarayonlarning yo'nalish olishida katta ahamiyatga ega bo'lgan kategoriya hisoblanib, zamonaviy siyosiy fanlarda uning siyosiy xayrihohlik, siyosiy betaraflik, siyosiy begonalik, siyosiy muxoliflik kabi bir qancha turlari haqida fikrlar bildirilgan. Mazkur kategoriyalarning mohiyati Navoiyda o'ziga xos tarzda ifodalanadi. Unga ko'ra siyosiy ishtirok ixtilofli jarayonlarda kuchayadi va jamiyatda amal qilib kelayotgan siyosiy me'yor va an'analarga xavf soladi. Bu xavf o'z navbatida butun ijtimoiy tizimning mazkur yuz bergan jarayonga tortilishiga olib kelib, barqarorlik, erkinlik va huquqlar uchun kurash zaruratini shakllantiradi.

Ulug' mutafakkir Alisher Navoiy asarlarining deyarli barchasi ijtimoiy-siyosiy munosabatlarni takomillashuviga, insonlar jamiyatini kamolotiga, ular o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni yuksalib borishiga xizmat qiladigan g'oyalar bilan sug'orilgan. Uning ana shunday mukammal asarlaridan biri "Mahbub ul-qulub" dir. Ta'kidlash o'rinliki, o'rta asr badiiy adabiyotiga xos bo'lgan an'ana, asar qahramonlari asosan jamiyatning yuqori tabaqalari vakillari obrazida ifodalashda o'ziga xos ramziylik bor.

Navoiy "Mahbub ul-qulubda" ning muqaddimasida, jamiyat juda murakkab tuzilishga egaligini ta'riflar ekan, turli insonlar, turfa fe'l-atvor, maqsad va manfaatlar uning harakatlantiruvchi kuchi ekanligini, lekin jamiyatning har bir a'zosi undan o'ziga xos xulosa chiqarishini aytadi va bunga ijtimoiy siyosiy munosabatlar masalasida o'z hayotida kechgan jarayonlardan misollar keltirib o'tadi⁹.

Ma'lumki, Navoiy jamiyat manfaatlarini ko'zlab, ayniqsa o'z davri siyosiy elitasi va oligarxiyasi vakillariga namuna bo'lish maqsadida, ko'plab dorush-shifo (kasalxonalar), qiroatxonalar (kutubxonalar), kanallar va ariqlar qazdirgan va boshqa bir qancha ijtimoiy inshootlarni o'z hisobidan qurdirgan yoki ularga rahnamolik qilgan. Ijtimoiy-siyosiy faoliyatining bosh g'oyasi esa muruvvat, futuvvat, saxovat, jo'mardlik, insonparvarlik g'oyalariga qaratilgan. Uning bu g'oyalari deyarli barcha asarlarida o'z aksini topgan. SHuning uchun umr poyonida avlodlarga ushbu masalalarni tushunishga yordam beruvchi bir pandnoma - "Mahbub ul-qulub" ni meros qoldirishga qaror qilganini bayon qiladi. Nazarimizda, ushbu asar mutlaqo ijtimoiy-siyosiy mavzuda bo'lib, davlat va jamiyat ishini boshqarish ishlariga bag'ishlangan. CHunki, asar ko'proq podshohlar, hukmdorlar, sultonlar, hokimlar, beklar, sadrlarning yaxshilik va yomonlik xislatlari, ijtimoiy munosabatlari haqida yozilgan. Bu jihatdan asarni bugungi siyosiy fanning "qiyosiy siyosatshunoslik" yo'nalishidagi "substansial qiyoslash" bo'yicha yaratilgan deyish mumkin. SHuningdek asarda insonlarning jamiyat boshqaruvidagi "siyosiy ishtirok" i ham keng sharhlanadi¹⁰.

Navoiy asarni uch qismga bo'lgan, qismlarning nomlari ham mavzuning ijtimoiy-siyosiy munosabatlarni sharhlashga bag'ishlanganligini bildirib turadi. Birinchi qism "Soir un-nosning af'ol va ahvolining kayfiyati", ya'ni xaloyiq ahvoli, fe'li, tili va kayfiyati, deb nomlangan. Unda jamiyatda yashovchi barcha "ijtimoiy qatlamlar", ularning guruh va qatlam vakillari sifatidagi munosabatlari, davlat munosabatlarida tutgan o'rni ta'riflanadi. Jamiyat va davlat boshqaruvida oliy hukmdor, sultonlar, podshohlardan tortib eng quyi tabaqalar vakillarigacha, ularni jamiyatdan va saltanatdagi siyosiy mavqeiga donishmandona baho beriladi (mazkur masala bugungi sotsiologiya va siyosatshunoslik fanida "sotsial stratifikatsiya" atamasi doirasida o'rganiladi). Ikkinchi qismda

⁹ Алишер Навоий. Мукаммал асарлар тўплами. 20 жилдлик. 14-ж. Махбуб ул-кулуб, Муншаот, Вақфия. -Т.: Фан, 1998, -Б. 4-5.

¹⁰ Қаранг: Алишер Навоий. Мукаммал асарлар тўплами. 20 жилдлик. 14-ж. Махбуб ул-кулуб, Муншаот, Вақфия. - Т.: Фан, 1998, -315 б.

“Hamida af’ol va zamima hisol xosiyatida” ya’ni “YAxshi fe’llar va yomon xislatlar xosiyati” haqida fikr yuritiladi. Bunda jamiyat hayotida, uning taraqqiyoti yoki tanazzulida asosiy rol o’ynovchi, turli guruhlilar va ayrim amaldor shaxslarga xos faoliyatlar ijobiy va salbiy nuqtai nazardan baholanadi (mazkur masala bugungi siyosatshunoslik fanida “siyosiy tafakkur”, “siyosiy sotsializatsiya” atamasi doirasida o’rganiladi). Uchinchi qismda esa “Mutafarriqa favoyid va Amsol surati”, ya’ni “Xilma xil foydalar va hikmatli so’zlar” bilan jamiyat boshqaruvida katta e’tibor qaratilishi kerak bo’lgan jihatlarga hikmatlar vositasida yondashiladi¹¹ (mazkur masala bugungi siyosatshunoslik fanida “siyosiy ehtiyojlar, zarurat va talablar” atamasi doirasida o’rganiladi).

“Mahbub ul-qulub” ning deyarli hamma fasllari va boblarida siyosiy boshqaruvda bevosita qatnashadigan siyosiy rahnamolar, podshohlar, vazirlar, hokimlar, sadrlar xususida gap yuritilgan. Asarda har bir siyosiy boshqaruv bo’g’ini mansabdorining maqomi, odobi, yaxshi yomon jihatlari, ularni qanday bo’lishligi masalalari misollar, pandnomalar vositasida bayon qilingan¹².

Yana shuni aytib o’tish kerakki, ushbu asarda har bir ijtimoiy tabaqa vakillari, ularni xususiyatlari, ruhiyati, fe’l-atvori, harakat va maqsadlari yuksak mahorat bilan tahlil etilgan. Bu jihatdan qaraganda, Navoiy hozirgi zamon ilmiy til bilan aytganda, jamiyatni ham siyosiy, ham sotsiologik, ham psixologik jihatdan tahlil qilganligini ko’ramiz. Bu bir tomonlama hayratlanarli hol bo’lsada, lekin, Navoiy butun umrini siyosiy arbob sifatida jamiyatda sodir bo’lgan ko’plab hodisalarni ko’rgan, hal qilish jarayonlarida qatnashgan, turli toifa vakillari, yaxshiyu yomon hulqli kishilar bilan muloqotda bo’lishga to’g’ri kelganligi uchun, uning asarlari hayotiy va ishonarli tilda yozilgan. “Vaqfiya”da Navoiy boshidan kechgan bu kabi xizmatlarni bitta jumla bilan shunday ifodalagan: “elning taraddudi va ulus ixtiloti, arzol tamalluqi va ashrof inbisoti va xavos ikromi va avom g’avg’osi, zolim ibromi va mazlum alolasi, raoyo g’ulusi va yasog’lig’ yorug’usi, tama’ ahlining nohamvor muloyamati va talab xaylining nohanjor mulozamati, juhhol sitamidin shevasi azo bo’lg’onlarning so’g’vorlig’i va ammol qalamidin ro’zgori qaro bo’lg’onlarning beqarorlig’i, burchluq azobig’a qolg’onlarning yo’lum boshida turmog’lig’i va farzandin garav qo’yg’onlarning etagimga ilik urmog’lig’i va iflosoyin talabning arzadoshti va ruq’asi va falokatshior shuaroning qasida va qit’asi, viloyatdin kelgan darmondalar holinnng taftishi va alarni rizolari bila uzatmoqning tashvishi, sarhad beklari elchisi taklifining zahmati va alarni dilxohlari bila qaytarmoqning mehnati, o’zga mamlakatdin oz va orzu hamiyonin tikib, tama’ xorlig’in o’zlariga tutub kelgan azizlar ibtilosi va alarning muxtalif muddaosi bila e’zoz qilib, nomaqdur matlublari bila vatanlarig’a yubormakning balosi, ozodlarning injulikka kirmak tama’idin tashni’i va bandalarning ozodliqqa chiqar umididin tavaqqun, tush ko’rub kechgan mashoyix e’lomin kelturganlar mubolag’asi, yiroq erdin o’tgan avliyo salomin etkurganlar muzoyaqasi, to’kquz xilol taklif bila bergonlarning tama’ tishin berkitgoni, bolchig’ tasbih zo’ri bila o’tkarganlarning talab rishtasin uzotqoni, solim jismin xastalikka solib, sharbax vajhi tilagonlar zarqsozlig’i, tirik kishisin o’lukdek yotquzub, kafan bahosi olg’onlarning hiylapardozlig’i, vaqfiylar bedodidin g’arib talabning ruq’a tilamagi, amal ahli fasodidin zaif raoyoning siporish istamagi va majlisda hamsuhbatlig’img’a taaniy ko’rguzgonlarning garonjonlig’i va sayrda hamzonulug’imga tahattuk zohir etkanlarning sabuk inonlig’i, Madinadin kelibbiz deb, iqomat yukin uyumda tushurganlar ziyofati, Makkaga borurbiz deb, tavaqqu’ markabin eshigimga surganlar rioyati, bu xaylning muddaosidin juzviy o’ksuk muyassar bo’lsa, norozi borib, gila qilg’onlarning hayrati va muddaolari tamom hosil bo’lg’onlarning bu rioyatni vazifa qilib yana kelmaklarining fikrati, yana dag’i mashaqqatlar borkim, aytilsa so’z rishtasi uzolg’ay”¹³. Bu asarning hozirgi zamon siyosatshunosligi fanining asosiy uslublaridan biri, empirik, real, hayotiy haqiqatlar asosida yozilganligini ko’rsatadi.

¹¹ Қаранг: Алишер Навоий. Мукаммал асарлар тўплами. 20 жилдлик. 14-ж. Махбуб ул-қуллуб, Муншаот, Вақфия. - Т.: Фан, 1998, -315 б.

¹² Қаранг: ўша манба.

¹³ Алишер Навоий. https://www.ziyouz.com/books/alisher_navoiy_asarlari/Alisher_Navoiy_Vaqfiya.pdf. -Б. 20.

Navoiy mamlakatning gullab yashnashini odil hukmdorga bog'laydi. Oddiy faqir fuqarolar, kambag'al va notavon uning (podshoning) murosasi va muloyimligidan osuda, xotirjam bo'ladilar, zolim va bebosh boshqaruvchilar (devon boshqaruvchisi, amaldorlar) adolat tig'i siyosatidan to'zib, tarqalib (qochib ketadi) ketadilar (mazkur masala bugungi siyosatshunoslikda "boshqaruv stili" atamasi doirasida o'rganiladi).

Salobatidan qo'yu qo'zi, bo'ri xavfidan emin, musofiru gadolar, qaroqchi vahmidan xolos, tinch. YUksak himmatidan zaifalar – ayollar jamoasi zavqli shovqin-suroniga to'la, haybatidan yo'llar qaroqchilardan holi va el qo'li mol-mulk, boylikka to'la, sitamgar amaldorlarni qalami sinadi, alamzadalik sitami barbod bo'ladi. Odil say-harakatidan masjidlar jamoat ko'pligidan madrasalar ilm ahli bahs-munozarasidan shovqin-suronli bo'ladi. Podshoh kechalarda jamiyat uchun sham, shu tufayli, do'konlar ochiq, bebosh, o'g'ri, kazzoblar yo'qligidan jamoat xotirjam. SHomdan toki tongga qadar honaqolar eshigi ochiq va ular faqat ibodat nuri bilan munavvar bo'ladi. YUrt sara bog'-rog'lardan ma'mur, rohat-farog'atli turmushdan, to'kin-sochinlikdan mamnun¹⁴ (keltirilgan ta'rif bugungi siyosatshunoslik fanida "siyosiy jarayonlar" yo'nalishida tadqiq etiladi).

YUqorida aytib o'tganimizdek, asar boshdan oyoq siyosiy munosabatlar va ijtimoiy muammolarga bag'ishlangan nazariy-didaktik ahamiyatga egadir.

Asarning keyingi fasllari: "Nomunosib noiblar zikrida" (bugungi siyosiy fanlarda "siyosiy xiyonat" atamasiga doir), "Zolim va johil va fosiq podshohlar zikrida" (bugungi siyosiy fanlarda "siyosiy rejim" atamasiga doir), "Vuzaro zikrida" (bugungi siyosiy fanlarda "siyosiy elita" atamasiga doir), "Noqobil sadrlar zikrida" (bugungi siyosiy fanlarda "siyosiy axloq", "kadrlar siyosati" atamalariga doir) kabi fasllarga bo'linib ularni har biriga alohida ta'rif beriladi (bularning hammasi bugungi siyosatshunoslik fanida "siyosiy munosabatlar" doirasida tahlil etiladi). Asarning 13 fasli "SHoh ulusi o'ziga mushobih (mosligi), xosligi bulur zikrida" deb nomlanadi. Unda Navoiy tomonidan ko'rib chiqilgan masalalar bugungi siyosatshunoslikda "ligitimlik" masalalari doirasida tahlil etiladi.

Xullas, Alisher Navoiy asarlarida bugungi siyosatshunoslikning tarkibiy qismlari bo'lgan qator siyosiy kategoriyalar mazmun mohiyatiga oid qarashlar aks etgan bo'lib, mutafakkir ularning o'zaro bog'liq jihatlarini yaxshi bilgan va amalga tatbiq etishga harakat qilgan.

¹⁴ Алишер Навоий. Мукамал асарлар тўплами. 20 жилдлик. 14-ж. Махбуб ул-кулуб, Муншаот, Вақфия. -Т.: Фан, 1998, -Б. 7.